



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HAMDA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA HAYVONLAR BILAN BOG'LIQ MASALALARNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

¹Dexkonova Dildora Otajon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

E-mail: dildora180495@mail.ru

+998990101616,

²O.T Xazratqulov

TDYU dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351286>

ARTICLE INFO

Received: 13rd November 2022

Accepted: 19th November 2022

Online: 23rd November 2022

KEY WORDS

Hayvonot dunyosi, jamiyat, insonlar, hayvonlar huquqlari, qonunchilik, muammolar, milliy tajriba, xorijiy tajriba.

ABSTRACT

Bugungi kundagi jamiyatda nafaqat insonlarning balki yon-atrofimizda yashayotgan yana bir tirik mavjudotlar ya'ni hayvonlarning huquqlarini himoya qilish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida hayvonlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalaning qonunchilik va amaliyotdagi muammolari hamda bu boradagi milliy va xorijiy tajriba muhokama qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XI bobi "Fuqarolarning burchlari" deya nomlanib, ushbu bobning 50-moddasida: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar deya ta'kidlangan.¹ Atrof muhit deganda, bizni o'rab turgan tabiat va undagi hayvonot olami nazarda tutiladi demak, shu davlatning har bir fuqarosi o'z burchini bajarish maqsadida hayvonlarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishi hamda ularni qiynoqqa solinishiga loqayd munosabatda bo'lmasligi kerakligi lozimdir.

Bundan tashqari milliy qonunchiligimizda hayvonlar to'g'risidagi normalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolik, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hamda jinoyat kodekslarida ham nazarda tutilgan. Ammo ushbu masala alohida normativ huquqiy hujjatda aks etmagan. Vaholanki,

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida" gi qonun loyihasi 2019-yilda muhokama qo'yilgan bo'lsada, hozirgi kunga qadar kuchga kirmagan.²

Ammo birinchi ijobiy o'zgarishlar 2019-yilda, Prezident Shavkat Mirziyoyev Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 111-moddasiga hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lganlik uchun jazo choralarini kuchaytirishni nazarda tutuvchi qo'shimchalarni imzolaganidan so'ng boshlandi. Shunday qilib, jarima eng kam oylik ish haqqining 0,5-2 baravaridan eng kam oylik ish haqqining 1-3 baravarigacha ko'tarilgan edi. Bundan tashqari, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan huquqbuzarlik yoki voyaga yetmagan shaxs ishtirokida sodir etilgan huquqbuzarlik uchun - 3-5

¹ Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

² Regulation.gov.uz-Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali



baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi deya belginalgan edi.³ Hozirgi kunga kelib, ushbu norma Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 111-moddasida:

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni ularni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda qiynoqqa solish yoki ularga azob berish, - bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa yoxud ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxs hozirligida sodir etilgan bo'lsa yoki hayvonlarning o'limiga yoxud mayib bo'lishiga olib kelsa, - bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi deb belgilab qo'yilgan.⁴

Shu bilan birgalikda 2021-yilda Jinoyat kodeksiga ham alohida Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish degan 202¹-modda kiritildi.Unda:

Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lish, ya'ni g'arazli yoki boshqa past niyatlarda ularni qiynoqqa solish yoxud ularga azob berish ularning o'limiga yoki mayib bo'lishiga olib kelsa, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha

miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha ozodlikni cheklash yoki olti oygacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi deb belgilab qo'yildi.⁵

Lekin mazkur mavzu ijtimoiy tarmoqdagi kunlik habarlarda uchrayotgan hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik aks etgan yangiliklarning ortib borishidan kuzatilayotganidek o'z aktuelligini yo'qotgani yo'q. Huquqbuzarlarga nisbatan jazo choralari qo'llanilishi bu masalaga yechim bo'la olmayabdi, shuningdek ularni oldini olish bilan bog'liq profilaktik choralar ko'rish masalasi ham ochiq qolmoqda.

Hayvonlar huquqlarini himoya qilish o'zi nimada namoyon bo'ladi? Ummumiy qilib olganda, bu hayvonlarni saqlash va davolash sharoitlarini yaxshilash, hayvonlarga nisbatan shafqatsizlikning oldini olishga qaratilgan faoliyat turi bo'lib hisoblanadi. Hayvonlar huquqlari himoyachilarining ta'kidlashicha, insonning hayvonlarga nisbatan kuchlilik huquqidan foydalanishi boshqa jins yoki boshqa irq vakillariga nisbatan zulm bilan bir xil turdagi diskriminatsiyani tashkil qiladi. Zamonaviy insoniyat yengib o'tishi kerak bo'lgan muhim axloqiy chegaralardan biri bu boshqa biologik turdagi mavjudotlar ya'ni hayvonlarda o'z maqsadlariga erishish vositasini ko'rishni to'xtatishdir.

Hayvonlar huquqlarini himoya qilishga doir bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar ham mavjud bo'lib, bular qatoriga: "Uy hayvonlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi", "Eksperimental hayvonlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa konvensiyasi", "Yo'qolib ketish

³ Uznews.uz Ахборот портали

⁴ Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali

⁵ Lex.uz-O'zbekiston Respublikasi yagona interaktiv hujjatlar portali



xavfi ostida turgan turlarning xalqaro savdosi to'g'risidagi konvensiya”, “Hayvonlar to'g'risidagi umumjahon deklaratsiyasi” kiradi.⁶

Yuqoridagi mavzuda xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinganda, dunyo miqyosida hayvonlar huquqlarini himoya qiladigan turli xil tashkilotlar va hayriya fondlari faoliyat yuritishi ma'lum hamda ular tomonidan turli xil tadqiqotlar olib boriladi.

Butunjahon hayvonlarni himoya qilish jamiyati bunga misol bo'lib, (inglizcha World Animal Protection) - 150 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yurituvchi va 900 dan ortiq tashkilotlarni birlashtirgan xalqaro notijorat hayvonlarni himoya qilish tashkiloti hisoblanadi.

Jumladan, internet tarmoqlaridagi World animal protection deya nomlanadigan saytda “Hayvonlarni himoya qilish indeksi” statistikasi olib boriladi. Hayvonlarni himoya qilish indeksi dunyoning 50 ta mamlakatidagi hayvonlarni muhofaza qilish siyosati va qonunchiligiga ko'ra tahlil qiladi. Bu loyiha Butunjahon hayvonlarni himoya qilish bo'yicha yagona hisoblanib, hayvonlarni yaxshiroq himoya qilish uchun yanada mustahkamroq qonunlarni kuchga kiritish bo'yicha harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi.⁷ Ushu loyihada Osiyo qit'asidagi:

Ozarbayjon, Pokiston, Eron, Vyetnam, Tayland va boshqa ko'plab mamlakatlar ishtirok etadilar. Afsuski, O'zbekiston mazkur indekslar ko'rsatkichlari yuritilayotgan davlatlar ichida mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida hayvonlar huquqi himoyasiga doir keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan, xususan 2006-yil 30-noyabrda Gollandiya

parlamentida asosiy maqsadi hayvonlar huquqlarini yaxshilash bo'lgan partiya – ya'ni “Hayvonlar himoyasi” partiyasiga ega bo'lgan dunyodagi birinchi davlat sifatida tarixga kirdi.⁸ Yevropa qit'asidagi yana bir mamlakat, Germaniya shuningdek, hayvonlarni muhofaza qilish bo'yicha o'z qonunlariga ega hayvonlarni sevuvchi mamlakat hisoblanadi. Butunjahon hayvonlarni himoya qilish tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davlatda qo'riqlanadigan hayvonni o'ldirganlik uchun jarima 25 000 yevrogacha bo'lishi mumkin.⁹

Amerika qo'shma shtatlarida esa, hayvonlarning himoyasi turli shtatlarda turlicha. Masalan, 2017-yildan Alyaskada kimdir turmush o'rtog'i bilan ajrashmoqchi bo'lsa, hayvonni huddi farzandlar singari, kimda qolishi ma'qulroq ekanini ya'ni er yoki xotindaligini sudya hal qiladi.¹⁰ Virjiniyada esa, it o'g'irlash jinoiy javobgarlik hisoblanib, 10 yilgacha qamoq jazosiga olib kelishi mumkin.¹¹

Hayvonlar uchun huquqlarga ega bo'lish muhimdir. Huquqlar bilan ular tuzoqqa solinmaydi, kaltaklanmaydi, qafasga solinmaydi, sun'iy urug'lantirilmaydi, mayib bo'lmaydi, giyohvand moddalar bilan oziqlantirilmaydi, savdo-sotiqda tovar bo'lib xizmat qilmaydi, boshqa biron foyda ko'rgani uchun o'ldirilmaydi. Hayvonlarga huquq berish orqali dunyodagi azob-uqubatlar miqdori keskin kamayadi. Hayvonlar biz insonlar kabi azob chekishi mumkin, ular ham biznikiga o'xshab shaxsiyat va imtiyozlarga ega va ular biz kabi zarar ko'rishni xohlamaydilar. Ularning huquqlari insonning aql-

⁶ www.ru.wikipedia.org

⁷ www.api.worldanimalprotection.org

⁸ www.ru.wikipedia.org

⁹ www.boredpanda.com

¹⁰ www.washingtonpost.com

¹¹ www.tingen.law



zakovatini idrok etishiga asoslanmasligi kerak.

Xorijiy tajribani yutuqli tomonlarini ko'rib, milliy qonunchilikka tatbiq etib, yanada mukammalroq normlarni yaratish zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Birinchidan, ota-onalar va ularning farzandlari ishtirokida hayvonlar huquqlari himoyasi mavzusida profilaktik suhbatlar olib borish, zooparklarda, sirkalarda, hayvonlar uchun boshpanalar berilayotgan joylarda nazoratni doimiy ravishda olib borish;

Ikkinchidan, insonlarda hayvonlarga nisbatan mehr va shafqat uyg'otuvchi ta'sirli ijtimoiy roliklarni televizyon kanallar hamda ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etish;

Uchinchidan, "Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'grisida" gi qonunning haligacha muhokamada ekanligi, qabul qilinmayotganligi shuningdek, qonunda hayvonlarni emlash bilan bog'liq aniq normaning mavjud emasligi hamda qarovsiz hayvonlarni himoya qilish bilan bog'liq aniq mexanizmning mavjud emasligi;

To'rtinchidan, ko'chalardagi boshpanasiz hamda qarovsiz qolgan hayvonlarga normal yashash sharoitini ko'zda tutadigan maxsus joylar va veterinar punktlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu ishlarni amalga oshirish bilan hayvonlar himoyasini ta'minlashda sezilarli ijobiy natijalarga erishish mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Broom, D.M. Animal welfare: concepts and measurement // Journal of Animal Science. — 1991
3. Нижегородская Государственная Сельскохозяйственная Академия: Биоэтика в высшей школе//Права животных. — 2019
4. С.Горина, Зоозащита сегодня
5. Council of Europe — ETS no. 125 — European Convention for the Protection of Pet Animals
6. Compassion in World Farming — Universal Declaration on Animal Welfare
7. O'zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi
8. O'zbekiston respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi
9. O'zbekiston respublikasi Jinoyat kodeksi
10. www.ru.wikipedia.org
11. www.lex.uz.com
12. www.regulation.gov.uz
13. www.api.worldanimalprotection.org
14. www.washingtonpost.com
15. www.thehumaneleague.org